
YO'L BELGILARI YAQIN KUNLARDA CHIZILADI

Ijtimoiy tarmoqlarda haydovchilar tomonidan "Rishton tumanida nega yo'l chiziqlari chizilmayapti. Rishton tumani Jalayer qishlog'ining asosiy yo'lida chiziqlar o'chib ketgan mutasaddi tashkilot aparatini berib tursin xalq o'zimiz pul yig'ib chizib olamiz kimdur kanolga tushib o'lishini kutmasdan. Nega Yo'l Qurilish chizib qo'ymaydi. Chiziq xiralashib ko'rinmaydigan holatga kelgan sal tuman tushsa umuman yurib bo'lmaydi" deb yo'llangan murojaat yuzasidan Rishton tumani yo'llardan foydalanish unitar korxonasi quyidagilarni ma'lum qiladi. Yo'l belgilarni chiziqlarini chizish, yo'l belgi korxonasi tomonidan amalga oshirilishini ma'lum qilamiz. Ayni damda Rishton tumanidagi yo'llarga belgilarni chizish bo'yicha Rishton tumani yo'llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan talabnoma berilgan bo'lib, shu kunlarda chizish ish olib boriladi.

2024-01-10 14:20:51